



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA  
JADID BOBOLONLARIMIZNING ILMIY MEROSINI TAHLIL  
QILISH VA ULARNING BOSH G'OYASINI O'QUVCHILAR  
ONGIGA SINGDIRISH USULLARI**

**XUDOYQULOVA GULSHAN XUDOYOR QIZI**

Osiyo xalqaro universitetining 2-kurs magistranti

Gulshanxudoyqulova2@gmail.com

**Annotatsiya**

**KIRISH:** Mazkur tezisdagi 1-4-sinf o'qish savodxonligi darsligida berilgan jadid bobolarimizning ilmiy merosi tahlil qilingan va uni o'rgatishda innovatsion metodlarning ahamiyati yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida Vatanni sevish tuyg'usini o'stirishda ajdodlarimiz merosidan foydalanish, o'quvchilarga milliy o'zligini anglatishda interfaol metodlardan foydalanish yaxshi natija erishish mumkinligi ochib berilgan.

**Maqsad:** Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida jadid bobolonlarimizning ilmiy merosini tahlil qilish va ularning bosh g'oyasini o'quvchilar ongiga singdirish usullarini ilmiy tahlil qilish.

**Xulosa:** Buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodini yosh avlodga o'rgatish kelajagimiz uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan tarbiyaviy jarayondir. Ushbu jarayon milliy o'zlikni anglash, ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish, ilm-fanga qiziqishni oshirish, vatanparvarlik va fuqarolik ongini rivojlantirish hamda madaniy merosni asrashga xizmat qiladi. Buyuk ajdodlar merosi yosh avlod uchun ibrat maktabi bo'lib, barkamol, bilimli va vatanparvar jamiyatni barpo etishda mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.



**Kalit soʻzlar :** jadidchilar maktabi, Munavvarqori Abdurashidxonov, Muhammmadxoʻja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, **Tarmoqlash (klaster) metodidan, “Misradagi asosiy soʻzni belgila” metodi,**

Ajdodlarimiz ilmiy merosini oʻrganish yosh avlodda milliy oʻzlikni anglash va tarixiy xotirani shakllantirishga yordam beradi. Oʻz tarixini, buyuk shaxslarini chuqur bilgan yoshlar oʻzligini yoʻqotmaydi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiq boʻlib ulgʻayadi. Bu esa globallashuv sharoitida yoshlarni turli yot gʻoyalardan himoya qilishda, ularning ongini milliy gʻoya bilan toʻldirishda muhim omil hisoblanadi. Buyuk ajdodlarimiz faoliyatini oʻrganish orqali oʻquvchilar oʻz xalqining jahon renesansiga qoʻshgan ulkan hissasini anglaydi va bundan faxrlanish tuygʻusi shakllanadi, milliy gʻurur paydo boʻladi. Jadidlar bolalarni taʼlim-tarbiyaga jalb qilish, zamonaviylashtirish va bilimga yoʻnaltirish boʻyicha sezilarli oʻzgarishlar olib kelganlar.

Jadid bobolarimiz haqida 1- sinfdan boshlab oʻquvchilar tanishtirilib , ularning taʼlim rivojiga qoʻshgan hissalar alohida eʼtirof etilmoqda. Dushanba kuni oʻtiladigan kelajak soati darslarida 1-11 –sinfgacha barcha oʻquvchilarga jadid bobolarimiz haqida yosh doirasida maʼlumotlar berilmoqda. Bu orqali oʻquvchilarda ajdodlarga nisbatan hurmat va ehtirom shakllantiriladi. Vatanparvarlik tuygʻusi rivojlanadi. “Men oʻzbekman ” degan gʻurur paydo boʻladi.





1-rasm Vatanparvarlik tuyg'usi dars jarayonida ajdodlarimiz merosini o'rgatish orqali o'quvchilar ongiga singdirish tasvirlangan

Bundan tashqari, o'qish savodxonligi darsliklariga alohida mavzu sifatida kiritilgan. Munavvarqori Abdurashidxonov - iliy maktab asoschisi, adib va shoir, ko'pplab darsliklar muallifi sifatida ta'rif berilgan. Abdulla Qodiriyning yangi o'zbek adabiyotida o'zbek romanchiligi asoschisi sifatida har bir o'zbek farzandi yaxshi biladi. "O'tgan kunlar" romanidagi Otabek va Kumush o'zbekning jasur farzandlari, tarbiyali yoshlari namunasidir. Muhammadxo'ja Behbudiy – o'zbek teatriga poydevor qo'ygan ma'rifatparvar adib, alloma va jamoat arbobi.<sup>1</sup>

O'zbekning ma'rifatparvar o'g'luni, jadidlar safida turib yosh avlod ta'limiga katta hissa qo'shgan, bir qancha maktablar ochgan, darsliklar yozgan pedagog, journalist - Abdulla Avloniy. Uning bolalar tarbiyasi uchun o'ta ta'sirli masallari bugungi kunda ham o'z o'rnini va qadriga ega. 2-sinf o'qish savodxonligi darsligining 3-qismida berilgan Abdulla Avloniyning "Bolari bilan pashsha" masala so'zimizning isbotidir. O'quvchilar masaldan chiqargan xulosalarini aniqlash maqsadida **Tarmoqlash (klaster) metodidan** foydalanish yaxshi samara beradi. Abdulla Avloniyning bu masala yordamida o'quvchilar mehnat qilishning foydasi, dangasalik yomon odat ekanligini anglab yetadilar.

Abdulla Avloniyning "Yangi avlod" she'ri keltirilgan bo'lib, bu she'rdagi har bir so'z bolalar nomidan aytilgan.

#### Yangi avlod

Aziz ota-onamizning qalqonimiz

Buyuk xalqim, suyuq xalqim, bizga inon.

Fidodir bu qutlug' Vatanga jonimiz,

<sup>1</sup> U.B.Aydarova. 2-sinf o'qish savodxonligi 3-qism. T. Novda. 2023y 49-bet



Buyuk xalqim, suyuk xalqim , bizga inon.<sup>2</sup>

Ushbu misralar bolalarga ota-ona va Vatan oldidagi burchini eslatib turgandek yangramoqda. Xalq , millat , Vatan uchun jonni fido qilish , qalqondek uni asrab-avaylash lozimligi uqtirilmoqda. Misradagi eng asosiy soʻzlarni oʻquvchilarga belgilatish orqali , uning bosh gʻoyasini yanada tezroq tushuntirish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyatlar

1.U.B.Aydarova, N.K.Azizova : “Oʻqish savodxonligi ” 1-sinf, I qism ./ darslik – Novda.T.-2024 /

2.U.B.Aydarova : “Oʻqish savodxonligi ” 2-sinf, I qism ./ darslik – Novda.T.-2024

35.Mamasoli Jumaboyev : “Bolalar adabiyoti ” . / darslik- Oʻqittuvchi. T.-2008

3.Miraziz A'zam .Saylanma.-Toshkent. Choʻlpon.2005y.560b

4.Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. “Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent 2023yil. 191-b

5.U.B.Aydarova , N.K.Azizova, M.E.Toirova “Oʻqish savodxonligi ” 4-sinf, II qism ./ darslik – Novda.T.-2023

6. ziyonet.uz

<sup>2</sup> U.B.Aydarova . 2-sinf oʻqish savodxonligi 1-qism.T.Novda.2023y 14-bet